



(dastlabki ma'lumotlar)

# Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2020- yil yanvar - sentabr



2020- yilning yanvar - sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **74,6 %**ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **11,4** birlikni tashkil qildi.

2020- yilning yanvar - sentabrida **4900** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,0** foizga kop.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda -1968 ta, sanoatda - 1139 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 763 ta, qurilishda - 367 ta, yashash va ovqatlanishda - 188 ta, tashish va saqlashda - 102 ta tashkil etilgan.

## 2020- yil yanvar - sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



## Yanvar - sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'Ichov birligi	2019- y.	2020- y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	20828	25547	4719
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	4454	4900	446
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	77,3	74,6	-2,7
Sanoat	%	63,8	48,3	-15,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	97,5	98,1	0,6
Investitsiya	%	50,8	76,2	25,4
Qurilish	%	95,7	89,8	-5,9
Savdo	%	88,7	89,6	0,9
Xizmatlar	%	66,8	65,2	-1,6
Yuk tashish	%	95,7	95,1	-0,6
Yuk aylanmasi	%	92,4	94,1	1,7
Yo'lovchi tashish	%	96,5	98,2	1,7
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,9	96,5	-0,4
Eksport	%	80,5	63,8	-16,7
Import	%	83,4	77,2	-6,2



## 2020- yilning yanvar - sentabrida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari. %da




2020- yilning yanvar - sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida - 1042 ta, Pop tumanida - 453 ta, Chust tumanida - 409 ta, Namangan tumanida - 403 ta, Uychi tumanida - 394 ta, To'raqo'rg'on tumanida - 371 ta, Uchqo'rg'on tumanida - 353 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Kosonsoy tumanida - 278 tani tashkil etgan.

**Tumanlar va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	Yanvar-sentabr 2019- yil	Yanvar-sentabr 2020- yil	(+;-)
<b>Namangan viloyati</b>	<b>4454</b>	<b>4900</b>	<b>446</b>
Namangan sh. <i>tumanlar:</i>	1309	1042	-267
Mingbuloq	223	303	80
Kosonsoy	288	278	-10
Namangan	276	403	127
Norin	246	287	41
Pop	351	453	102
To'raqo'rg'on	276	371	95
Uychi	316	394	78
Uchqo'rg'on	318	353	35
Chortoq	248	303	55
Chust	374	409	35
Yangiqo'rg'on	229	304	75



**2020- yil yanvar - sentabr holatiga ko'ra yangi tashkil  
topgan kichik korxona va mikrofirmalarning  
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, %da**




2020- yil yanvar - sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Namangan shahri - 21,3 %, Pop tumani - 9,2 %, Chust tumani - 8,3%, Namangan tumani - 8,2 %, Uychi tumani - 8,0 %, To'raqo'rg'on tumani - 7,6 %, Uchqo'rg'on tumani - 7,2 %ga tegishli.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	(+; -)
Jami	4454	4900	446
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	268	763	495
Sanoat	1229	1139	-90
Qurilish	388	367	-21
Savdo	1820	1968	148
Tashish va saqlash	177	102	-75
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	248	188	-60
Axborot va aloqa	55	78	23
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	38	71	33
Boshqa faoliyat turlari	231	224	-7


**Ma'lumot uchun:** 2020- yilning yanvar – sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




### Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar va shaharlar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi (+;-)
Namangan shahri	1309	1042	-267
Pop tumani	351	453	102
Chust tumani	374	409	35
Namangan tumani	276	403	127
Uychi tumani	316	394	78
To'raqo'rg'on tumani	276	371	95

2020- yil yanvar - sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida - 1042 taga yetdi.




### Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar va shaharlar, birlikda






**Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - sentabr holatiga ko'ra\***




2020- yilning yanvar - sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Namangan tumanida 14,2 birlik, Namangan shahrida 14,0 birlik, Mingbuloq tumanida 13,4 birlik, Chust tumanida 12,3 birlik, Uchqo'rg'on tumanida 11,3 birlik, Chortoq tumanida 10,8 birlikni tashkil etgan. To'raqo'rg'on tumanida esa, ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 9,0 birlikka to'gri keldi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




## 2020- yilning yanvar-sentabrida tumanlar va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Bundan ko'riniib turibdiki, Namangan tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, To'raqo'rg'on tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


## Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar - sentabr holatiga ko'ra, %da

2020- yilning yanvar - sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 74,6 %ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar - sentabrida 77,3 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



## Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



## 2020- yilning yanvar - sentabrida kichik tadbirkorlikni tumanlar va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Namangan viloyati</b>	<b>48,3</b>	<b>89,8</b>	<b>65,2</b>	<b>76,2</b>
Namangan sh. <i>tumanlar:</i>	60,3	73,2	31,9	72,0
Mingbuloq	16,0	100,0	95,9	55,5
Kosonsoy	98,4	100,0	96,2	94,1
Namangan	43,3	100,0	91,7	80,6
Norin	29,1	100,0	94,5	83,1
Pop	52,2	72,8	86,3	57,5
To'raqo'rg'on	18,3	100,0	87,2	55,2
Uychi	58,3	100,0	96,7	88,4
Uchqo'rg'on	18,4	100,0	94,0	95,8
Chortoq	100,0	96,6	94,4	81,0
Chust	67,6	96,8	93,3	92,8
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	96,8	89,3

Tumanlar va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

### **Sanoatda-**

Yangiqo'rg'on,  
va Chortoq  
(100,0 %),  
Kosonsoy (98,4 %),  
Chust (67,6 %)  
tumanlarida.


### **Qurilishda-**

Mingbuloq, Kosonsoy,  
Namangan, Norin,  
To'raqo'rg'on,  
Uchqo'rg'on,  
Yangiqo'rg'on (100,0%)  
tumanlarida.

### **Xizmatlarda-**


Yangiqo'rg'on (96,8 %),  
Uychi (96,7 %),  
Kosonsoy (96,2 %),  
Mingbuloq (95,9 %),  
Norin (94,5 %),  
Chortoq (94,4 %),  
Uchqo'rg'on (94,0 %),  
Chust (93,3 %),  
Namangan (91,7 %),  
tumanlarida.

# Kichik tadbirkorlik subektlari tomonidan 2020- yilning yanvar-sentabrida






**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining jami eksportdag'i ulushi, %da**



2020 - yil yanvar - sentabr oylarida tumanlar va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Kosonsoy tumanida - 99,4 %, Chortoq tumanida - 98,7 %, Yangiqo'rg'on tumanida - 93,0 %, Pop tumanida - 63,1 %, Uchi tumanida - 60,2 %ni, eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida - 25,1 %ni tashkil etdi.




**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da**



2020- yil yanvar - sentabr oylarida tumanlar va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Chortoq tumanida - 100,0 %, Kosonsoy tumanida - 99,3 %, Pop tumanida - 98,4%, Yangiqo'rg'on tumanida - 96,3 %, Uychi tumanida - 93,9 %, Norin tumanida - 92,8 %. Eng past ko'rsatkich Namangan va Mingbuloq tumanlarida - 33,0 %ni tashkil etdi.



**2020- yilning yanvar - sentabrida tumanlar va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**





Tumanlar va shaharlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (1710,6 mlrd. so'm), Namangan (264,1 mlrd. so'm), Uychi (256,1 mlrd. so'm), Kosonsoy (251,5 mlrd. so'm) va Chust (218,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Mingbuloq tumanida (63,4 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.





## 2020- yil yanvar - sentabr holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tumanlar va shaharlar bo'yicha ulushi, %da




Tumanlar va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangiqorgon va Chortoq tumanlarida - 100,0 %, Kosonsoy tumanida - 98,4 %, Chust tumanida - 67,6 % va Namangan shahrida - 60,3 %ni tashkil etdi.

Aksincha, Mingbuloq tumanida (16,0 %) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.



**2020- yilning yanvar - sentabrida tumanlar va shaharlar bo`yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Tumanlar va shaharlar bo`yicha eng ko`p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri - 3142,9 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar – sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 92,6 %), Pop tumani - 547,0 mlrd. so'm (101,3 %), Kosonsoy tumani - 513,4 mlrd. so'm (97,7 %), Norin tumani - 482,9 mlrd. so'm (95,3 %), Chust tumani - 404,8 mlrd. so'm (101,9 %), To'raqo'rg'on tumani - 398,7 mlrd. so'm (95,8 %) va Yangiqo'rg'on tumani - 391,4 mlrd. so'm (94,6 %) hissasiga to'g'ri keladi.



**2020- yilning yanvar - sentabrida tumanlar va shaharlar  
bo'yicha kichik tadbirkorlik(biznes)da  
bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**




Tumanlar va shaharlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri - 663,4 mln. so'm (2019- yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 90,2%), Uychi tumani - 346,8 mln. so'm (109,5 %), Kosonsoy tumani 282,9 mln. so'm (106,3 %), Namangan tumani - 278,7 mln. so'm (107,1 %), Chust tumani - 199,0 mln. so'm (118,0 %), Chortoq tumani - 192,2 mln. so'm (107,2 %) hamda To'raqo'r'on tumani - 186,1 mln. so'm (109,2 %) qayd etildi.





**2020- yilning yanvar - sentabrida tumanlar va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**




Tumanlar va shaharlar bo`yicha eng ko`p xizmatlar hajmi Namangan shahri - 922,0 mlrd. so'm (2019-yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 94,1 %), To'raqo'rg'on tumani - 340,4 mlrd. so'm (106,4 %), Chust tumani - 322,2 mlrd. so'm (102,4 %), Pop tumani - 320,5 mlrd. so'm (101,7 %), Kosonsoy tumani - 316,1 mlrd. so'm (100,6 %), Chortoq tumani - 305,6 mlrd. so'm (105,8 %) hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil III chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **883** ta respondentlar ishtirok etdi.


### 2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, %da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 4,1 % (36 ta), sanoatda - 22,9 % (202 ta), qurilishda - 11,1 % (98 ta), savdoda - 34,9% (308 ta), xizmatlar sohasida - 27,0 % (260 ta) ni taskil etdi.

\*oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lган kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.

**2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot  
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi  
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va  
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot  
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan  
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va  
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da**




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020- yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qulay iqtisodiy vaziyat qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 33,3 punktga, qurilishda 24,5 punktga, savdoda 19,3 punktga, xizmatlar sohasida 18,2 punktga hamda sanoatda 13,9 punktga kamaydi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalarning ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha ko'payishi kuzatildi. Masalan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 41,7 punktga, qurilishda 18,9 punktga, savdoda 17,2 punktga oshdi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda barcha sohada iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 8,4 punktga kamayishi, qolgan barcha faoliyat turlari bo'yicha o'sishi kuzatildi.




### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 – 2020 yillarda III chorakdagagi iqtisodiy vaziyatini baholash, %da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 - yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi o'rmon va baliq xo'jaligida 27,8 punktga oshdi, qolgan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi qurilishda 18,3 punktga, savdoda 17,2 punktga, xizmatlar sohasida 13,5 punktga, sanoatda 9,1 punktga o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qurilishda 3,1 punktga, xizmatlar sohasida 0,2 punktga oshdi, qolgan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaydi.




### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 - 2020 yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, %da






2020- yil III choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 128 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari - 29 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 22,7 %), qurilish - 10 ta (7,8 %), savdo - 52 ta (40,6 %) va xizmatlar - 17 ta (13,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 20 ta (15,6 %).

### 2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da






**2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkill etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'rta, 2020-yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi sanoatda 22,9 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 12,5 punktga va savdoda 0,6 punktga pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2,5 punktga kamaydi. Qurilishda o'zgarmadi. Boshqa faoliyat turlari bo'yicha kamayishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 15,0 punktga oshdi. Qurilishda o'zgarmadi. Boshqa faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.


### 2019 - 2020 yillar III chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, %da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020- yilning III choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaydi. Shu jumladan: xizmatlar sohasida 47,1 punktga, qurilishda 40,0 punktga, savdoda 30,3 punktga kamaydi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2,5 punktga kamaydi. Qolgan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 5,0 punktga, savdoda 1,9 punktga ko'paydi.



### 2019- 2020 yil III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,%da





**Namangan viloyati statistika boshqarmasi  
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish  
statistikasi bo'limi**  
Tel.: (0369) 227-84-76